



INVESTITSION JOZIBADORLIK VA DIVIDEND SIYOSATI: TRANSPORT SOHASIDAGI AKSIYADORLIK JAMIYATLARI MISOLIDA

Sherkuziyeva Nasiba

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0001-5415-3393

nsh272707@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada aksiyadorlik jamiyatlari investitsion jozibadorligining joriy holati transport sohasidagi aksiyadorlik jamiyatlari misolida o'rganilgan. "O'zparavtotrans" AJ, "Boshtransloyiha" AJ kabi transport sohasidagi aksiyadorlik jamiyatlarida aksiyalar bozor qiymati va dividend to'lovlari joriy holati tahlil qilingan va xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: transport sohasi, investitsion jozibadorlik, dividend, dividend siyosati, aksiya, aksiya daromadliligi, bozor qiymati, so'f foyda, aksiyadorlik jamiyatlari.

ИНВЕСТИЦИОННАЯ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТЬ И ДИВИДЕНДНАЯ ПОЛИТИКА: НА ПРИМЕРЕ АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВ ТРАНСПОРТНОЙ ОТРАСЛИ

Шеркузиева Насиба

Ташкентский государственный

экономический университет

Аннотация. В данной статье исследовано текущее состояние инвестиционной привлекательности акционерных обществ на примере акционерных обществ транспортной отрасли. Проведен анализ рыночной стоимости акций и современного состояния дивидендных выплат в таких акционерных обществах транспортной отрасли, как АО «Узпаравтотранс» и АО «Boshtransloyiha», а также сформулированы соответствующие выводы.

Ключевые слова: транспортная отрасль, инвестиционная привлекательность, дивиденд, дивидендная политика, акция, доходность акций, рыночная стоимость, чистая прибыль, акционерные общества.

INVESTMENT ATTRACTIVENESS AND DIVIDEND POLICY: EVIDENCE FROM JOINT-STOCK COMPANIES IN THE TRANSPORT SECTOR

Sherkuziyeva Nasiba

Tashkent State University of Economics

Abstract. This article studies the current state of investment attractiveness of joint-stock companies using the example of joint-stock companies in the transport sector. The current state of market value of shares and dividend payments in joint-stock companies in the transport sector, such as "Uzparavtotrans" JSC, "Boshtransloyiha" JSC, is analyzed and conclusions are given.

Keywords: transport sector, investment attractiveness, dividend, dividend policy, share, return on share, market value, net profit, joint-stock companies.

Kirish.

Hozirda transport sohasidagi aksiyadorlik jamiyatlarini rivojlantirishda ularning investitsion jozibadorligini oshirish masalasi iqtisodiy modernizatsiya jarayonlarining ajralmas qismi hisoblanib, bu orqali sohaning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligi ta'minlanadi. Investitsion jozibadorlikning oshirilishi xorijiy va mahalliy investorlarni jalb etish imkoniyatlarini kengaytirib, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish uchun zarur moliyaviy resurslar oqimini kuchaytiradi. Ayniqsa, transport tizimining strategik ahamiyati inobatga olinsa, mazkur sohadagi aksiyadorlik jamiyatlarining samarali faoliyati butun iqtisodiyotning uzluksiz ishlashini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Investitsion jozibadorlikni oshirish orqali aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish imkoniyati yuzaga keladi, bu esa investorlar ishonchini mustahkamlab, kapital bozorida ularning pozitsiyasini kuchaytiradi. Shu nuqtai nazardan, shaffof moliyaviy hisobotlar, samarali dividend siyosati va risklarni boshqarish mexanizmlarining joriy etilishi transport kompaniyalarining investitsion reytingini oshiradi. Ayni paytda innovatsion texnologiyalarni joriy etish va raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish investitsion jozibadorlikni yanada oshirib, operatsion samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Transport sohasidagi aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligi ularning aksiyalariga bo'lgan talabni oshirib, fond bozorida likvidlik darajasining ortishiga olib keladi, bu esa kapital jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlovchi siyosat va institutsional islohotlarning amalga oshirilishi investitsiya muhitini yaxshilab transport sektorining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Bundan tashqari transport infratuzilmasining rivojlanishi logistika xarajatlarini kamaytirib, iqtisodiy samaradorlikni oshirish orqali mamlakatning global raqobatbardoshligini mustahkamlaydi va shu sababli mazkur mavzu dolzarblik kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Zamonaviy korporativ moliyada dividend siyosati kompaniyaning investitsion jozibadorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Dividend to'lovlarining barqarorligi va shaffofligi investorlar uchun korxonaning moliyaviy holati hamda kelgusidagi rivojlanish istiqbollari haqida muhim signal vazifasini bajaradi. Shu jihatdan, dividend siyosatining samaradorligi nafaqat aksiyadorlar manfaatlarini ta'minlash, balki korxonaning bozor qiymatini oshirish va investitsiyalarni jalb etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, Gao va hammualliflarning (2026) ta'kidlashicha: "Dividend siyosati korporativ moliyaviy strategiyaning asosiy elementi bo'lib, mazkur siyosat kompaniyadan aksiyadorlarning daromadlarini uzoq muddatli barqaror o'sish bilan muvozanatlashni talab qiladi. Bu nafaqat korporativ boshqaruv sifatini aks ettiradi, balki investorlarning, ayniqsa, kichik aksiyadorlarning manfaatlarini bevosita shakllantiradi. Biroq, ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlardagi kompaniyalarda dividend siyosati ko'pincha kutilgan me'yorlardan chetga chiqadi, bunda uzoq muddatda dividendlarning to'lanmasligi, g'ayritabiiy darajada past to'lov nisbati, yuqori dividendlar va tashqi moliyalashtirishning birgalikda mavjudligi hamda to'lov shakllaridagi sezilarli o'zgaruvchanlik kabi keng tarqalgan muammolar mavjud".

Darhaqiqat, aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishda dividend siyosati muhim omillardan biri hisoblanadi. Binobarin, bizning fikrimizcha mazkur siyosat korporativ moliyaviy strategiyaning markaziy elementi sifatida kompaniya foydasini taqsimlash va qayta investitsiya qilish o'rtasidagi muvozanatni belgilab, aksiyadorlarning joriy daromadga bo'lgan ehtiyojini kelajakdagi qiymat yaratish maqsadlari bilan uyg'unlashtirishni talab qiladi. Shu bilan birga ushbu siyosat kompaniyaning investitsion imkoniyatlari, kapital qiymati va bozor sharoitlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi zarur ekanligini alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim, chunki noto'g'ri tanlangan dividend yondashuvi uzoq muddatli o'sish salohiyatini cheklashi ham mumkin.

Xususan, Baker, Mendel va Wurgler (2015) dividend siyosatini axborot signali sifatida baholab, dividendlarning kamaytirilishi investorlar tomonidan salbiy signal sifatida qabul qilinishini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, "dividend to'lovlari korxonaning kelajakdagi rivojlanish istiqbollari haqida muhim axborot beradi", ya'ni dividend to'lovlari korxonaning kelajakdagi rivojlanish istiqbollari haqida bozorga ma'lumot uzatadi.

Dividend siyosati va korxona qiymati o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda dividendlarning investitsion jozibadorlikka sezilarli ta'siri mavjudligi qayd etilgan. Njoku va hammualliflar (2024) Koreya fond bozori ma'lumotlari asosida o'tkazgan tadqiqotida dividend siyosati kompaniya qiymati va bozor bahosiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. Mualliflarning xulosasiga ko'ra, yirik korporatsiyalar dividend siyosatidan aksiyadorlar qiymatini oshirish hamda investorlar ishonchini mustahkamlash vositasi sifatida foydalanadilar.

Shuningdek, xalqaro tadqiqotlarda dividend siyosati korporativ boshqaruv sifati bilan ham uzviy bog'liqligi ta'kidlanadi. Yousef (2025) tomonidan Fors ko'rfazi Arab davlatlari hamkorlik kengashi (GCC) mamlakatlari kompaniyalari misolida olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, korporativ boshqaruv organlarida xalqaro tajribaga ega direktorlarning mavjudligi dividend to'lovlari hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va bu investorlar uchun qo'shimcha ishonch omili hisoblanadi.

Dividend siyosatining aksiyalar bozor qiymatiga ta'sirini o'rganar ekan, Pelcher (2019) dividend daromadliligi va aksiyalar narxi o'zgaruvchanligi o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik mavjudligini aniqlagan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, dividendlar investorlar uchun muhim mezon bo'lib, ular aksiyalarning investitsion jozibadorligini baholashda asosiy ko'rsatkichlardan biri sifatida qaraladi.

Bu borada mamlakatimizdagi mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ham dividend siyosati korxonalarning bozor qiymatini oshirish va kapital bozorini rivojlantirishning muhim omili sifatida e'tirof etiladi. Xususan, mahalliy olimlar dividend to'lovlarining muntazamligi va shaffofligi fond bozorida investorlar faolligini oshirishga hamda aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion reytingini yaxshilashga xizmat qilishini qayd etadilar.

Xususan, hozirgi vaqtda foydani taqsimlash tegishli me'yoriy hujjatlarga asosan o'tkazilmoqda, lekin dividendlarni to'lash muddatlari va tartibiga barcha aksiyadorlik jamiyatlari rioya qilmayapti. Shuningdek, amaliyotda talab qilib olinmagan dividend summolari mavjud bo'lib, ularni buxgalteriya hisobi schotlarida aks ettirish bo'yicha ham muammolar bor (Ortiqov, 2024). Xususan, mamlakatimizda foydani taqsimlash jarayoni amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, amaliyotda barcha aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan dividendlarni to'lash muddatlari va tartibiga to'liq rioya etilmayotgani tizimli muammolar mavjudligini alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim. Bu esa o'z navbatida ayrim aksiyadorlar tomonidan talab qilib olinmagan dividend summalarining mavjudligi ushbu mablag'larning hisobini yuritish va ularni to'g'ri tasniflash jarayonini murakkablashtiradi.

Elmirzayev (2021) korxonaning investitsion jozibadorligi investorlar uchun moliyaviy barqarorlik, rentabellik darajasi va aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarining uyg'unligi bilan belgilanishini ta'kidlaydi. Aksiyadorlik jamiyatlarida dividend to'lovlarining barqarorligi korxonaning bozor qiymatini oshirish va investorlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi (Sherkuziyeva, 2022).

Ashurov (2017) korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish investitsiyalar oqimini rag'batlantirishning muhim sharti ekanligini qayd etadi. Uning fikricha, dividend siyosatining ochiqligi va prognoz qilinuvchanligi investorlar uchun qo'shimcha ijobiy signal bo'lib xizmat qiladi hamda aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshiradi (Ashurov, 2017).

Yuqoridagilar asosida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, boshqa tarmoqlar kabi transport sohasidagi aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida ham dividend siyosatining samarali tashkil etilishi investitsion jozibadorlikni oshirish, bozor kapitallashuvini ko'paytirish va uzoq


muddatli investorlarni jalb qilishning muhim vositasi hisoblanadi. Chunki mazkur tarmoqda yirik infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirish uchun uzoq muddatli investitsiyalar talab etiladi. Shu bois dividend siyosatining oqilona yuritilishi bir tomondan aksiyadorlar manfaatlarini qondirsa, ikkinchi tomondan korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa transport korxonalarida dividend siyosati va investitsion jozibadorlik o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishni dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolada aksiyadorlik jamiyatlari investitsion jozibadorligining joriy holati (transport sohasidagi aksiyadorlik jamiyatlari misolida)ni o'rganishda statistik tahlil, tanlanma tahlil, taqqoslama tahlil, kuzatish, qiyoslash kabi metodlar qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Transport sohasidagi aksiyadorlik jamiyatlarini rivojlantirishda dividend siyosati investitsion jozibadorlikni oshiruvchi asosiy moliyaviy instrumentlardan biri sifatida namoyon bo'lib, u aksiyadorlar daromadlilikini ta'minlash bilan birga kompaniyaga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Dividend to'lovlarining barqarorligi aksiyalar narxining o'zgaruvchanligini kamaytirib, fond bozorida likvidlik darajasining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.




1-rasm. "O'zparavtotrans" AJ aksiyalari bozor qiymati o'zgarishi, so'm

Yuqoridagi 1-rasmda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, "O'zparavtotrans" AJ aksiyalarining bozor qiymati 2025-yil boshidan boshlab bosqichma-bosqich o'sish tendensiyasini namoyon etib, dastlabki davrda 6001 so'm darajasida shakllangan. Mazkur ko'rsatkich keyingi oylarda 7201 so'mgacha ko'tarilib, nisbatan barqaror holatda saqlanib qolganligi aksiyalarga bo'lgan talabning muayyan darajada shakllanganini anglatadi. Bir qarashda narxning 7201 so'm (nominal qiymati 5000 so'm) atrofida barqaror saqlanishi ijobiy ko'rinsa-da, uzoq vaqt davomida mazkur ko'rsatkichning saqlanishi savdo hajmi bilan bog'liq bir qator savollarni keltirib chiqaradi.

Mazkur 2-rasmda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, "Boshtransloyiha" AJ aksiyalarining bozor qiymati tahlil qilinayotgan davrda sezilarli tebranishlar bilan birga umumiy o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Dastlab aksiyalar qiymati 6959 so'm darajasida shakllangan bo'lsa-da, keyingi bosqichda keskin oshib 10399 so'mga yetgani investorlar faolligining ortganini ko'rsatadi. Mazkur o'sishdan so'ng narxning 7800 so'mgacha pasayishi bozorda

muayyan korreksion jarayonlar yuzaga kelganidan dalolat beradi. Aksiyalarning yana qayta o'sib 10500 so'm darajasiga yetgani kompaniyaning investitsion jozibadorligi tiklanganini anglatadi, bu esa investorlar tomonidan ijobiy kutilmalar mavjudligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, keyingi davrda narxning 8400 so'mgacha pasayishi qisqa muddatli bozor noaniqliklari yoki tashqi omillar ta'siri bilan izohlanishi mumkin.



2-rasm. "Boshtransloyiha" AJ aksiyalari bozor qiymati o'zgarishi, so'm

Aksiyalarning nominal qiymati 1000 so'm ekanligini hisobga olsak, ularning bozor qiymati bir necha barobar yuqori darajada shakllanayotgani kompaniyaning bozor tomonidan yuqori baholanayotganini bildiradi. Shu nuqtai nazardan, investorlar uchun mazkur aksiyalar yuqori daromadlilik salohiyatiga ega bo'lgan moliyaviy instrument sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq narx dinamikasidagi tebranishlar ma'lum darajada risk mavjudligini ham ko'rsatadi, chunki bozor qiymatining keskin o'zgarishi investorlar qarorlariga ta'sir qilishi mumkin.

Quyidagi 1-jadvaldagi "Boshtransloyiha" AJda dividend to'lovlari dinamikasi tahlili shuni ko'rsatadiki, kompaniya foydasini taqsimlash siyosati yillar kesimida sezilarli o'zgarishlarga ega bo'lib, bu uning moliyaviy strategiyasining moslashuvchanligini aks ettiradi. Xususan, 1 dona aksiya uchun dividend miqdori 2021-yilda 227 so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda keskin oshib 435 so'mga yetgani kompaniyaning yuqori foyda yoki aksiyadorlarga yo'naltirilgan siyosat olib borganini bildiradi. Shu bilan birga, 2023-yilda dividend miqdorining 219 so'mga tushishi, keyingi yillarda esa 100 va 107 so'm darajasida shakllanishi foydaning kamayishi yoki reinvestitsiya ulushining oshganini anglatishi mumkin. Bundan tashqari, dividend to'lash uchun yo'naltirilgan sof foyda ulushi 2022-yilda 94,58% ga yetgani kompaniyaning deyarli barcha foydasini aksiyadorlarga taqsimlaganini ko'rsatadi, bu esa qisqa muddatli daromadlilikni oshirgan bo'lsa-da, uzoq muddatli investitsion imkoniyatlarga ta'sir qilishi mumkin. Ayni paytda, qolgan yillarda ushbu ko'rsatkichning 50% atrofida barqarorlashuvi kompaniya tomonidan muvozanatli dividend siyosati yuritilayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, dividendlar uchun yo'naltirilgan sof foyda miqdori 2021-2023-yillarda 2 trillion so'mga yaqin bo'lgan. Dividend to'lovlarining 2024-yilda keskin kamayib 886 milliard so'mga tushgani kompaniya moliyaviy natijalarida pasayish yuz berganini ko'rsatadi. Shuningdek, 2025-yilda ushbu ko'rsatkichning biroz tiklanib 940 milliard so'mga yetgani

kompaniya faoliyatida ijobiy o'zgarishlar boshlanganini anglatadi. Aksiyalarning umumiy soni barcha yillarda o'zgarmasdan 4 453 008 dona bo'lib qolganligi kapital tuzilmasining barqarorligini ko'rsatadi hamda dividend hisoblash jarayonining izchilligini ta'minlaydi.

1-jadval

“Boshtransloyiha” Ajda dividend to'lovlari tahlili

Ko'rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025
Dividend to'langan yil natijalari bo'yicha	2020	2021	2022	2023	2024
1 dona aksiya uchun dividend miqdori (so'm)	227	435	219	100	107
Dividendlar to'lash uchun yo'naltirilgan sof foydaning ulushi (%)	50,13%	94,58%	50,03%	50,23%	50,67%
Dividendlar to'lash uchun yo'naltirilgan sof foyda miqdori (so'm)	2 016 358 600	2 048 091 615	1 949 327 000	886 381 000	940 333 000
Aksiyalarning umumiy soni	4 453 008	4 453 008	4 453 008	4 453 008	4 453 008
Dividendlar taqsimlangan aksiyadorlar yig'ilishi sanasi	10.07.2021	28.06.2022	22.06.2023	28.06.2024	18.07.2025

Xulosa qiladigan bo'lsak, transport sohasidagi aksiyadorlik jamiyatlarida barqaror va prognoz qilinadigan dividend to'lovlari investorlar uchun muhim signal vazifasini bajarib, kompaniyaning moliyaviy holati va kelgusidagi rivojlanish istiqbollari ijobiy baholash imkonini beradi. Ayni paytda dividend siyosatining optimal darajada shakllantirilishi, ya'ni foydaning bir qismini aksiyadorlarga taqsimlash va qolgan qismini reinvestitsiyaga yo'naltirish, transport korxonalarining uzoq muddatli barqaror o'sishini ta'minlaydi. Transport sohasidagi aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatini samarali tashkil etish investitsion jozibadorlikni oshirish, kapital jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim strategik omil hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Amalga oshirilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

1. Transport sohasidagi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning shaffof va samarali mexanizmlarini joriy etish, jumladan, mustaqil direktorlar ulushini oshirish, audit qo'mitalari faoliyatini kuchaytirish hamda axborot ochiqligini ta'minlash orqali investorlar ishonchini mustahkamlash zarur, chunki yuqori darajadagi korporativ boshqaruv investitsion xavflarni kamaytirib, kapital jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi;

2. Investorlar uchun muhim signal hisoblangan dividend to'lovlari tizimli ravishda amalga oshirish, ularning muddatlari va hajmini oldindan belgilangan siyosat asosida tashkil etish orqali aksiyalar jozibadorligini oshirish mumkin, ayniqsa transport kompaniyalarida barqaror pul oqimlari mavjud bo'lganda dividendlarning muntazamligi investitsion qarorlar qabul qilishda muhim omilga aylanadi;

3. Dividend tarzidagi daromadlar ortib borishi aholi ixtiyoridagi real pul oqimlarini ko'paytirib, ularning iste'mol qilish imkoniyatlarini kengaytiradi va bu esa umumiy talabning oshishiga olib keladi. Shu bilan birga dividend daromadlarining barqarorligi iste'molchilar ishonchini mustahkamlab, uzoq muddatli xaridlar va xizmatlardan foydalanish hajmining ortishiga zamin yaratadi.

4. Transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, logistika zanjirlarini optimallashtirish va yangi texnologiyalarni joriy etish orqali yuqori rentabelli investitsiya

loyihalarini shakllantirish, shu bilan birga faoliyatni diversifikatsiya qilish orqali risklarni kamaytirish va daromad manbalarini kengaytirish zarur, chunki bu kompaniyaning uzoq muddatli barqaror o'sishini ta'minlaydi;

5. Transport sohasidagi aksiyadorlik jamiyatlari IPO va SPO kabi moliyaviy instrumentlardan faol foydalanishi, aksiyalar erkin muomaladagi ulushini oshirishi hamda ikkilamchi bozorda savdolar hajmini ko'paytirishga e'tibor qaratishi lozim, chunki yuqori likvidlik investorlar uchun chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi va bu esa umumiy investitsion jozibadorlikni sezilarli darajada oshiradi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Ashurov, Z. (2017) 'Korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uni takomillashtirish masalalari', *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali*, 4, pp. 1–10.

Baker, M., Mendel, B. & Wurgler, J. (2015). *Dividends as Reference Points: A Behavioral Signaling Approach*. *Journal of Finance*.

Elmirzayev, S.A. (2021) *Korporativ moliya*. Toshkent: Iqtisod-Moliya.

Gao, H., Lu, J., Yang, L., Cheng, Z. and Liu, Z.F. (2026) 'Cutting corners, cutting dividends: Evidence from reverse mergers in China', *Emerging Markets Review*, 70, p. 4.

Njoku, O.E. et al. (2024). *Revisiting the Effect of Dividend Policy on Firm Performance and Value*. *Journal of Risk and Financial Management*.

Ortiqov, E. (2024) 'Aksiyadorlik jamiyatlarida dividendlarning buxgalteriya hisobini takomillashtirish', *Iqtisodiy tahlil va taraqqiyot jurnali*, 4(4), p. 484.

Pelcher, L. (2019). *The Role of Dividend Policy in Share Price Volatility*. *Journal of Economic and Financial Sciences*.

Yousef, I. (2025). *The Role of Foreign Directors in Shaping Corporate Dividend Policy*. *Journal of Accounting & Organizational Change*.

Шеркузиева, Н. (2022). Дивидендная политика: Влияние дивидендных выплат на курс акций и на рыночную стоимость акционерных обществ. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 23(1), 162-167.